SUN'IY INTELLEKT

SUN'IY INTELLEKTNING JURNALISTIKADA QO'LLANILISHI: IMKONIYAT, MUAMMO VA QADRIYAT MASALASI

Barno Buranova,
O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti

Munira Nazarova,
O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti

Annotatsiya: Mazkur ilmiy maqolada sun'iy intellektning jurnalistikaga integratsiyalashuvi tadqiq qilinib, u orqali yangiliklarni ishlab chiqish, tarqatish va iste'mol qilish tahlil qilinadi. Sohada yuzaga kelayotgan muammo va kamchiliklar o'rganiladi hamda ularga ilmiy xulosalar asosida taklif va tavsiyalarni taqdim qilinadi. Maqolada sun'iy intellektning jurnalistikaga ta'siri, xususan, ish jarayonlarini soddalashtirish, ma'lumotlarni tahlil qilish va vizualizatsiya qilish, yangiliklarni shaxsiylashtirish, faktlarni tekshirish va tasdiqlash, tilni tarjima qilish va kontentni moderatsiya qilish masalalari ko'rib chiqiladi. Shuningdek, jurnalistikada sun'iy intellektning qo'llanilishi bilan bog'liq axloqiy masalalarni, jumladan, xatoliklar, adolat, oshkoralik va ishonchning yo'qolishi bilan bog'liq masalalar ham tahlil qilinadi.
Kalit so'zlar: sun'iy intellekt (SI), jurnalistika, kontent, axloqiy me'yor, matn tahriri va tahlili, ishonchlilik, vizualizatsiya

1. Kirish

Zamonaviy dunyoda fan-texnika inqilobi jadal sur'atda rivojlanib, tobora murakkablashib bormoqda. O'zining evolyutsion tadriji davomida texnologik yutuqlar ommaviy axborot vositalari landshaftini tubdan o'zgartirdi, har bir yangilik jamiyat va siyosiy maydonda o'z izini qoldirib, yangiliklarning tarqatilishi va iste'mol qilinishiga ta'sir ko'rsatdi. Mana shunday murakkab bir davrda biz yana bir inqilobning boshlanishida turibmiz, ya'ni sun'iy intellekt (SI)ning kuchi bilan boshqariladigan davr.

Bugun SI ilmiy fantastikada emas, balki har bir sohada o'z ta'sir va kuchiga ega bo'lib bormoqda. Oddiy vazifalarni avtomatlashtirishdan tortib, ma'lumotlarni tahlil qilishgacha bo'lgan jarayonlar SI tomonidan amalga oshirilib, jurnalistikada yangicha davrga tamal toshini qo'ydi. Biroq SIning jurnalistikaga integratsiyasi ayni damda ham murakkabligicha qolmoqda. Ushbu texnologik yuksalish oldimizda turgan imkoniyat va muammolarni chuqur o'rganishni talab qiladi. Bir tomondan, SI ish jarayonlarini soddalashtirish, jurnalistlarni takroriy vazifalardan ozod qilish va ularni chuqurroq mulohaza qilishga imkon yaratayotgan bo'lsa, boshqa tomondan, qo'pol xatoliklar, axloqiy me'yor doirasidan chiqish va ish o'rinlarining qisqarib borishi kabi jiddiy muammolarni yuzaga keltirmoqda.

"Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasida sun'iy intellektni rivojlantirish yoki qo'llashga oid 13 ta normativ-huquqiy hujjat mavjud. Bular jumlasiga O'zbekiston Respublikasi

DOI:
https://doi.org/10.62499/ijmcc.vi8.94

Iqtibos:
Buranova, Barno; Nazarova, Munira. 2025. Sun'iy intellektning jurnalistikada qo'llanilishi: imkoniyat, muammo va qadriyat masalasi Markaziy Osiyoda media va kommunikatsiyalar xalqaro ilmiy jurnali. 8: 26-41.

Prezidentining 3 ta farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 6 ta qarori hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 4 ta qarori kiradi” (Гулямов и др., 2022). Mazkur qonun hujjatlarining deyarli barchasida milliy jurnalistikamizda sun’iy intellektni qo‘llash bo‘yicha huquqiy me’yorlar belgilab qo‘yilgan.

2. Metodlar

Ushbu ilmiy maqolada eksperimental, qiyosiy va analitik tadqiqot usullaridan foydalanildi. Eksperimental tadqiqot usulida pedagogning talabalarga bergan bir qator topshiriqlari ustida eksperiment o‘tkazilgan bo‘lsa, qiyosiy hamda analitik tadqiqot usullari orqali olingan natijalar o‘zaro solishtirilib, tahlil qilindi. Tahlil natijalariga ko‘ra taklif va tavsiyalar taqdim qilindi.

3. Natija va mulohazalar

Dunyo miqyosida jurnalistikaning yangiliklar dasturida gibridlashgan avtomatizatsiya (ko‘p qirrali avtomatlashtirish), intellektual ma’lumotlarni tahlil qilish, kontent ishlab chiqish va yangiliklarni saralash jarayonlarida sun’iy intellektdan foydalanilmoqda (Diakopoulos, 2019). Chan-Olmsted matnning sifatli tahlilidan foydalanib OAVda SIdan foydalanishning samarali jihatlarini tahlil qiladi va uni media sohasida qo‘llash bo‘yicha quyidagicha tasnif qiladi (Chan-Olmsted, 2019):

– kontent (mavzu) yaratish;
– kontent (mavzu)ni boshqarish;
– xabarlarni optimallashtirish;
– jarayonlarni avtomatlashtirish;
– auditoriya uchun tavsiyalar va kontent (mavzu)ni qidirish tizimi;
– auditoriyani jalb qilish;
– auditoriyaning keng tajribasidan foydalanish;
– auditoriyani anglash (tushunish).

T. Hesmanning fikricha (2017), SI innovatsiyalar, muammolarni bartaraf etish va mavjud ish joylariga yangi yondashuvlarni yaratish nuqtai nazaridan odamlar uchun tobora foydali bo‘lib bormoqda. Lekin ijtimoiy fanlar sohasida SI taqdim qilayotgan ma’lumotlar bazasida qator muammo va xatoliklar mavjudki, bugun ilm-fan ahli mazkur muammoni tadrijiy ravishda hal qilishi kerak. Maqolaning 2.2-qismida mazkur masalani tahlillar asosida tadqiq qilamiz.

3.1. Sun’iy intellektning jurnalistikada qo‘llanilishi


SIning jurnalistikada qo‘llanilishi uning ijtimoiy dinamikaga ta’siri salbiy oqibatlar keltirib chiqarishi haqidagi bahsli munozaralarni keltirib chiqardi. Media vakillari orasida sun’iy intellekt

jurnalistlarning o‘rnini egallashi mumkinmi, degan xavotirli munosabatlarni yuzaga keltirdi (Sundar, 2020). SI jurnalistika sohasida inson omilini siqib chiqaradi degan qo‘rquvlar ham bor edi (Latar, 2015). Biroq Linden (2017), ijtimoiy konstruktivistik nuqtai nazardan, texnologiya inson tajribasi bilan shakllanishini ta’kidlab, SI insonning xatti-harakatlarini takrorlashini isbotladi. Ayni vaziyatda jurnalistlar texnologiya keltirib chiqarishi mumkin bo‘lgan salbiy oqibatlarning oldini olish va yumshatish borasida boshqaruvchi kuch sifatida qolishini ko‘rsatdi.

Yangiliklar jurnalistikasidagi bu inqilob faqatgina SI taklif qilayotgan vositalar va funksiyalar bilan cheklanmaydi. Bu jurnalistlarning o‘z kasbiga yondashuvini o‘zgartirishni ham talab qiladi. An’anaviy ravishda, jurnalistlar ma’lumotlarni intervyu, tadqiqot va bevosita kuzatuvlar orqali yig‘adi. Ushbu asosiy ko‘nikmalar muhim bo‘lib qolsa-da, SI an’anaviy metodlarni qo‘llab-quvvatlagan holda sohada texnologik taraqqiyotni amalga oshirish imkonini beradi. Jurnalistlar SI yordamida ulkan ma’lumotlar to‘plamini ko‘rib chiqishi, potensial xavfni aniqlashi va yashirin voqelikning bog‘liq nuqtalarini o‘rganishi mumkin. SI moliyaviy hujjatlar, ijtimoiy tarmoq postlari va jamoat yozuvlarini tekshirib, jurnalistik surishtiruv talab qiladigan nomuvofiqliklarni belgilaydi. Jurnalistlar SI yordamida olingan ma’lumotlar orqali murakkab axborot tarmoqlarida maqolalar yozadi (Ventura & et.al., 2017).

Mamlakatimizda “Neyron tarmoqlarini qo‘llashning birinchi sohasi – kontentning generatsiya jarayonidir. Ya’ni matn yaratish va tahrirlash, jurnalistning ishi, kompetentsiya – yangi narsalarni o‘rganishga va qabul qilishga tayyorgarlikdir” (2019).

Bundan tashqari, SI jurnalistlar va auditoriya o‘rtasidagi



1-rasm. ChatGPT SI vositasi chiqarib bergan ma’lumot


aloqani qayta belgilash imkoniyatiga ega. Bugun yangiliklarni auditoriya talabiga moslashtirish zamoni o‘tdi. SI yangiliklar lentasini shaxsiylashtirishga imkon beradi, kontentni individual afzallik va qiziqishlarga moslashtiradi (Liu & et.al., 2018). Bu maxsus auditoriyalar uchun muhim bo‘lgan voqealar bilan chuqurlashtirilgan aloqani yaratadi, interaktiv va dinamik yangiliklar iste’mol qilish tajribasini rivojlantiradi. Ushbu darajadagi shaxsiylashtirish auditoriyalarga eng muhim masalalar bo‘yicha xabardor bo‘lish imkonini beradi va ular orasida o‘zaro bog‘liq kuchli fuqarolik pozitsiyasini rivojlantiradi.

3.2. Jurnalistikada sun’iy intellekt yuzaga keltirayotgan muammolar

SI imkoniyatlari bilan birga, u bilan kirib kelayotgan muammolarni ham tan olish juda muhimdir. Har qanday inqilobiy texnologiya kabi SI integratsiyasi bir qator muammolarni keltirib chiqarmoqda. Biz SI algoritmlaridagi xatoliklar, SI vositalarining qanday xulosalarga kelishidagi oshkoralik zarurati va ma’lumotlarga asoslangan yangiliklar muhitida jurnalistlarning o‘zgaruvchan roli haqida to‘xtalamiz. Ushbu muammolarni hal qilish va mustahkam axloqiy me’yorlarni yaratish orqali kelajakda jurnalistlarga jamoatchilikni xabardor qilish va jurnalistikadagi eng yuqori standartlarni saqlashda yordam beruvchi qudratli vosita sifatida SI’dan foydalanish uchun yo‘l ochishimiz mumkin.

Sun’iy intellektning (SI) jurnalistikaga integratsiyasi ikki jihati bilan ajralib turadi: bir tomondan, SI katta imkoniyatlar to‘plamini taqdim etadi, yangiliklarni ishlab chiqish, tarqatish va iste’mol qilishni inqilobiy tarzda o‘zgartirish va’dasini beradi. Boshqa tomondan, ushbu transformatsion texnologiya o‘ziga xos muammolarni keltirib chiqaradi. Bu esa bugungi kun olimlarining ushbu masalaga ehtiyotkorona yondashuvini talab qiladi.

Xatoliklar va adolatli yondashuv: SI algoritmlari mashinani o‘qitishda ishlatilgan ma’lumotlar to‘plamidagi xatoliklarni meros qilib olishga moyil. Ushbu xatoliklar yangiliklarni tanlashda, axborotlarni qanday taqdim etishda yoki hatto ba’zi qarashlarni chetlab o‘tishda o‘zini namoyon qilishi mumkin. Jurnalistlar bo‘lishi mumkin bo‘lgan ushbu xatoliklarni anglab, ma’lumotlarni yetkazishi va xilma-xil manbalar orqali ularni kamaytirish uchun astoydil ishlashi kerak (Gebru & et.al., 2020). Masalan, tadqiqot



2-rasm. ChatGPT SI vositasi bergan ma’lumot

ishimizda bugungi kunda keng jamoatchilik tomonidan faol qo‘llanilayotgan SI matn generatori ChatGPTga: “Mahmudxo‘ja Behbudiyning muharrirlik faoliyati haqida ma’lumot ber” deb kiritgan so‘rovimizga SI vositasi 401 ta so‘zdan iborat matnni chiqarib berdi va bu ma’lumotlarning 10/7 foizi umumiy gaplardan iborat


Ma’lumotni jurnalning ingliz tilidagi muqobili bilan solishtirib, tekshirib ko‘rganimizda, 2016-yildan boshlab “Brill Publisher’s” tomonidan “Journal of World Literature” nomi ostida jahon adabiyotshunosligi, tarjima va adabiyotning madaniyatlararo aloqalariga e’tibor qaratadigan akademik jurnal nashrdan chiqa boshlagani ma’lum bo‘ldi (2016). Bundan ko‘rinadiki, SI bazasida ishlovchi ChatGPT bazasiga joylangan o‘zbek tilidagi ma’lumotlar mashinani o‘qitish jarayonida noto‘g‘ri kiritilgan hamda javob variantlarini foydalanuvchiga taqdim etayotganida aniq sana va kunlarni, nashr sonlarini ko‘rsatish orqali, ularda yuzaga keladigan shubhaga barham beradi. Natijada, o‘zbek jurnalistikasi tarixiga oid bilimga ega bo‘lmagan foydalanuvchi ChatGPT taqdim etgan noto‘g‘ri ma’lumot bilan kifoyalanadi va hatto, boshqalarga bu haqida xabar tarqatayotganida xato axborot berishi mumkin. Shu boisdan, matn generatorlari taqdim etayotgan ma’lumotlarni ishonchli manbalar orqali tekshirishga ehtiyoj bor.

Bugun o‘zbek tilidagi ma’lumotlar bazasini shakllantirish uchun hamda jurnalistikada xato va adolatsiz kontentlarning oldini olish uchun mutaxassislar va olimlar oldida ulkan vazifalar turibdi. “Bu borada raqamlashmagan ma’lumotlar ko‘p. Bularni raqamlashtirishimiz zarur. O‘zi sun’iy intellekt ishlashi uchun ma’lumotlar bazasidan tashqari yuqori samaradorlikka ega hisoblash quvvatlari (HPC – High performance computing), soddaroq aytilsa, superkompyuterlar kerak. Butun dunyoda HPC’larning tanqisligi mavjud va ular juda qimmat turadi. Barcha raqamli ma’lumotlar yetarli bo‘lib, hisoblash quvvati ishlamasa ham bu jarayonni amalga oshirib bo‘lmaydi. Biz buni to‘g‘ri yo‘lga qo‘yishimiz kerak, bular tizimli ishlamas ekan, raqamlashgan baza yaratish ishlari sekin amalga oshiriladi. Ammo bunda inson omilining salohiyati ham yuqori bo‘lishi kerak” (Abdusattarov, 2024).

Oshkoralik va tushunarlilik: SI algoritmlarining eng katta muammolaridan biri qaror qabul qilish jarayonida oshkoralikning yo‘qligidir. SI tomonidan yaratilgan yangilikl yoki ma’lumot vizualizatsiyasining ortidagi sabablarni tushunish jurnalistlar uchun uning to‘g‘riligini va adolatli ekanligini baholashda juda muhimdir (Mitchell & et.al, 2019). Xususan, SI vizualizatsiyasida uning uch asosiy xususiyati, ya’ni matn, audio hamda tasvir orqali yaratib berayotgan kontentida adolatni ta’minlash, ma’lumotlarning to‘g‘riligini tekshirish uchun ham mavzuda

SIdan foydalanish foizini oshkora ko‘rsatish talab etiladi. Chunki bu ehtimoliy xato va kamchiliklarning oldini olishga yordam beradi.

Biz talabalarga zamonaviy o‘zbek adabiyotida o‘ziga xos uslubga ega yozuvchi Xayriddin Sultonovning “Boburiynoma” asari haqida taqdimot tayyorlash topshirig‘ini berganimizda, ular SI vositasidan foydalanib, vazifani amalga oshirgan. Tayyorlangan slayd boshdan oyoq umumiy gaplardan iborat. Mavzu nima haqidaligini tushunmagan talaba Xayriddin Sultonovning “Boburiynoma”si haqida emas, balki Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma”si haqidagi ma’lumotlarni to‘g‘ri deb bilib, taqdimotni “Boburnoma”ga asoslanib tayyorlab kelgan. Xususan, taqdimot matnida: “Boburnoma” tarixi. Boburning hayotini aks ettiruvchi “Boburnoma” Zahiriddin Muhammad Boburning shaxsiy xotiralarini va o‘z davridagi voqealarni batafsil bayon qiladi. Tarixiy voqealarni yozib olgan. Bobur o‘z davridagi siyosiy, ijtimoiy va madaniy hayotni aks ettirgan”, mazmunidagi umumiy gaplardan iborat ma’lumot aslida Xayriddin Sultonovning “Boburiynoma” asariga mos emas. Shuningdek, taqdimotda keltirilgan “Boburnoma” asari haqidagi ma’lumotlarda ham xatolik mavjud.



3-rasm. ChatGPT SI vositasi yordamida tayyorlangan taqdimot

Bundan tashqari, taqdimotga joylangan rasmda Bobur hayotiga doir rasmdan emas, balki rus knyazlariga oid tasvirdan foydalanilgan, shuningdek, XX asr adabiyotiga oid mazkur asar haqidagi ma’lumotlar deyarli noto‘g‘ri talqin qilingan. (4-rasm).



4-rasm. SI vositasida tayyorlangan slayd namunasi

Bu nimani anglatadi? Agar mashinani o‘qitish jarayoni to‘g‘ri tashkil qilinmasa, nafaqat slaydlar, balki butun boshli ko‘rsatuv yoki nashrlarda rasm yoki videotasvirlar xato hamda milliy qadriyatlarimizga mutlaqo to‘g‘ri kelmaydigan ma’lumotlar bilan ifodalanadi. Natijada vaqtlar o‘tib, SIdan foydalanib yaratilgan kontentni tekshiruvchi alohida kasb shakllantirishga to‘g‘ri keladi.

Ish o‘rinlarini yo‘qotish: Avtomatlashtirish vositalari jurnalistlarni takroriy ishlar (musahhih tekshiruvi, sahifalash, tartiblash va boshqalar)ni bajarishdan ozod qiladi. Biroq SI mavjud ishlarni butunlay almashtirishdan ko‘ra, ularni kengaytirishi mumkinligini tan olish muhimdir. Jurnalistlar yangi ko‘nikmalarni o‘rganishlari kerak, masalan, ma’lumotlar tahlili, dasturlash va SI natijalarini tanqidiy baholash (Coddington, 2018).

Bu masala hali-hamon bahs-munozaralar mavzusi bo‘lib qolmoqda. Siyosiy fanlar doktori, professor va jurnalist Sherzodxon Qudratxo‘ja “Sun’iy intellekt jurnalistikada insonning o‘rnini bosa olmaydi” (2024) maqolasida o‘nta sababni asoslab bergan. Bular:

1) estetik idrok va uslub;
2) empatiya va emotsional idrok;
3) etika va axloqiy dilemmalar;
4) kreativlik va o‘ziga xoslik;
5) kontekst tahlili, tagma’no (nyuans)larni anglash va tarixiy xotira;
6) inson munosabatlarini anglash;
7) intuitsiya;
8) shubhalanish va o‘zini tahlil etish qobiliyati;
8) shubhalanish va o‘zini tahlil etish qobiliyati;
9) moslashuvchanlik;
10) ma’naviy va huquqiy javobgarlik.

Bundan kelib chiqib aytish mumkinki, SI qanchalik rivojlanishidan qat’iy nazar inson omiliga muhtojligicha qoladi. Faqat kelajakda jurnalistikada ba’zi yo‘nalishlar yo‘qolib, o‘rnini yangi vazifa va sohalar egallashi mumkin.

Ishonchning yo‘qolishi: SI tomonidan yaratilayotgan kontent tobora ortib borayotganligi tufayli jamoatchilik ishonchini yo‘qotish xavfini tug‘diradi (Po‘latova, 2021). Auditoriya inson tomonidan yaratilgan maqolalar va algoritmlar tomonidan yaratilganlar o‘rtasidagi farqni tushunishda qiynaladi. Lekin bu asta-sekin yaqqol namoyon bo‘lib boradiki, jurnalistlar o‘z hisobotlarida SIdan foydalanayotganligini oshkor qilishi va axborotni tekshirishi, kontekstni taqdim etishda inson omili mavjudligini ta’kidlashi talab etiladi. Yuqorida Behbiduyga oid so‘rovga SI tomonidan keltirilgan javobda xatoliklar mavjudligini ko‘rdik. Bu holat istalgan mavzuga taalluqli bo‘lishi mumkin.

Bunday xatoliklarning tez-tez takrorlanishi esa SI tomonidan yaratilgan kontentga nisbatan ishonchning yo‘qolishiga olib kelishi mumkin.

Ma’lumotlarga egalik va boshqaruv: SI algoritmlari samarali ishlashi uchun katta miqdordagi ma’lumotlarga tayanadi (Calvo Rubio & Ufarte Ruiz, 2021). Kim bu ma’lumotlarga ega va kim ularni boshqaradi, shuningdek, korporatsiyalar yoki hukumatlar tomonidan manipulyatsiya qilish imkoniyatlari bilan bog‘liq savollar tug‘iladi. Jurnalistlar SI bilan ishlaydigan hisobotlarda qo‘llanilgan ma’lumotlarning manbaini anglab yetishi va ma’lumotlarning oshkoraligini ta’minlashi kerak. Bu esa kelajakda SI dasturlari va vositalarini yaratuvchilar asr ixtirosidan g‘araz maqsadlarda foydalanishining oldini oladi. Ya’ni, axborot va ma’lumotlar xolisona, biror xususiy maqsaddan holi tarzda SI bazasiga yuklansa, u nafaqat insonlar hayotini yengillashtirishi, balki taraqqiyotga ijobiy hissa qo‘shishi mumkin.

Huquqiy landshaft: Jurnalistikada SIdan foydalanishning huquqiy oqibatlari hali to‘liq o‘rganilmagan. SI tomonidan yaratilgan kontent uchun mualliflik huquqi, algoritmlar tomonidan tarqatilgan noto‘g‘ri axborot uchun javobgarlik va algoritmik qarorlar qabul qilishning huquqiy oqibatlariga jiddiy yondashish kerak. Xususan, 2024-yil 20-avgust kuni ijtimoiy tarmoq va media olamida hammaning e’tiborini tortgan “ChatGPT yozgan kitobdagi maslahat bir oilani zaharladi” (Umarkulov, 2024) ruknidagi xabar matni fikrimiz dalilidir. Xabarda aytilishicha, Buyuk Britaniyada qo‘ziqorin teruvchilar oilasi ChatGPT yordamida yozilgan kitob tavsiyasiga ko‘ra terilgan qo‘ziqorinlardan zaharlangan. Natijada kasalxonaga yotqizilgan oila boshlig‘i Amazon internet platformasida sotilgan kitobdagi illyustratsiyalar va maslahatlarga amal qilganini, unda ko‘plab xavfli xatolar borligi haqida ma’lumot beradi.

Maqolada ta’kidlanishicha, neyron tarmoqlar tomonidan yozilgan kitoblarning keng tarqalishi tufayli tajribasiz qo‘ziqorin teruvchilar jiddiy xavf ostida qolmoqda. Chunki mazkur manbalarda ko‘pincha noto‘g‘ri ma’lumotlar, jumladan, “zaharli qo‘ziqorinlarni ta’mi va hidi bilan aniqlash” bo‘yicha tavsiyalar mavjud bo‘lib, bu dahshatli oqibatlarga olib kelishi mumkin. Mazkur salbiy hodisalarning oldini olish maqsadida Guardian jurnalistlari tomonidan surishtiruv o‘tkazilgan. Unga ko‘ra bunday kitoblar to‘lig‘icha ChatGPT tomonidan yaratilgan matnlardan iborat bo‘lib, mavzuga mos kelmaydigan g‘ayritabiiy adabiy uslubga ega ekani aniqlangan. Shu bois xalqaro onlayn kitob do‘koni Amazon bu xildagi ba’zi shubhali kitoblarni sotuvdan olib tashladi. Bundan ko‘rinib turibdiki, jurnalistikada SIdan noto‘g‘ri foydalanish nafaqat mualliflik huquqiga doir xavfni tug‘diradi, balki inson hayotiga dahl qilishi mumkin bo‘lgan

jinoiy oqibatlarga ham olib kelishi mumkin.

Jurnalistik axloq me'yorlarining saqlanishi: Garchi SI kuchli vosita bo'lsa-da, jurnalistika inson omiliga tayanishini unutmaslik kerak. Tanqidiy fikrlash, etik qarorlar qabul qilish va ta'sirli maqolalar yozish jurnalistikada almashtirib bo'lmaydigan omil sifatida qoladi. Diqqatni SIni bu asosiy ko'nikmalarni kengaytirish uchun ishlatishga qaratish kerak, ularni almashtirish uchun emas. Bu haqidagi misollarni yuqorida professor Sherzodxon Qudratxo'janing fikrlarida ham ko'rib chiqdik. U: "Etika va axloqiy dilemmalar" xususidagi fikrini asoslashda: "Jurnalistlar ko'pincha axloq me'yorlariga tayanib qaror qabul qilish zarur bo'lgan murakkab vaziyatlarga duch kelishadi. Sun'iy intellekt esa algoritmlar va ma'lumotlar asosida ishlaydi va inson axloqiy mulohazasini talab qiladigan vaziyatlarda qaror qabul qilishga qiynaladi (hatto ojiz qoladi)" (2024), degan fikrlarni ilgari suradi. Biz ham professorning fikrlariga qo'shilgan holda aytishimiz mumkinki, axloq masalasi bu ma'lum bir algaritmik qolibga solinadigan omil emas. U bevosita inson ruhiyati va ong osti bilan bog'liq hodisaki, adabiyotdagi "qahramon obrazi" kabi jamiyatda mutlaqo qo'rqoq hisoblangan shaxsni kezi kelsa botirga, botirni esa qo'rqoqqa aylantirishi mumkin.

Javobgarlik masalasi: SI tomonidan yaratilgan kontentdagi xatoliklar yoki kamchiliklar uchun javobgarlikni aniqlash murakkablashadi. Bu ma'lumotlarni tanlab, so'rovni shakllantirgan journalist aybdormi yoki SI tizimini ishlab chiqqan dasturchilarmi? Axloqiy me'yorlarni amalga oshirishni ta'minlash uchun javobgarlik kimning zimmasida qolishini ham aniqlash juda muhimdir.

3.3. Jurnalistikada sun'iy intellektning o'rni: imkoniyatlar va yangilik taqdim etishda shaxsiylashtirish va tajriba masalasi

Sun'iy intellekt jurnalistlarga turli vazifalarni bajaruvchi vositalardan samarali va maqsadli foydalanish imkoniyatini taqdim etadi.

Sun'iy intellekt moliyaviy ma'lumotlar, sport reytinglari yoki ob-havo yangiliklari kabi oddiy hisobotlarni avtomatlashtirishda yordam berib, jurnalistlarga yanada murakkab maqolalar va chuqurroq tadqiqotlarga e'tibor qaratish uchun qimmatli vaqtini tejash imkonini beradi (Jones, 2020).

Katta miqdordagi ma'lumotlarni tahlil qilish qobiliyati jurnalistika dunyosida inqilobiy o'zgarish keltirib chiqaradi. Sun'iy intellekt algoritmlari katta hajmdagi ma'lumotlarni qisqa fursatda ko'rib chiqib, jurnalistlarga tendensiyalar, nomuvofiqliklar va yashirin ma'lumotlarni aniqlashda yordam beradi. Bu esa murakkab jurnalistik surishtiruvni, maqola va sharhlarni, kuchli siyosiy va muhim jurnalistik nuqtai nazarni ta'sirli vizualizatsiyalar orqali

auditoriyaga yetkazish fursatini taqdim etadi.


Shu bilan birga, sun'iy intellekt yangiliklar to'plamini shaxsiy o'ziga xosliklari nuqtai nazaridan auditoriya qiziqishlariga moslashtirishga yordam beradi. Masalan, o'z mahalliy mintaqangizga oid yangiliklar, eng sevimli jamoalaringizning sport yangiliklari yoki sizning maxsus mutaxassisligingizga mos bo'lgan tezkor yangiliklarni olish kabi. Ya'ni siz internet saytlari yoki ijtimoiy tarmoqlar orqali taqdim etilayotgan biror yangilik, axborot yoki ma'lumotga qiziqish bildirib, munosabatingizni izohlarda yozsangiz yoki qidiruv tizimiga bersangiz sun'iy intellekt algoritmlari shu mavzu doirasidagi butun ma'lumotlar ba'zasini ketma-ketlikda tavsiya eta boshlaydi. Bugun ijtimoiy tarmoqlarning deyarli barchasida ushbu algoritmdan foydalaniladi.

Sun'iy intellekt jurnalistikaning qaysi sohasida faoliyat yuritishingizdan qat'iy nazar, sizning yo'nalishingizga mos auditoriyani o'zi shakllantirib beradi. Bunda jurnalistdan talab etiladigan eng muhim va yogona narsa bu – auditoriyaga qiziqarli va o'ziga xos kontent taqdim etish hisoblanadi. Bunday darajadagi shaxsiylashtirish auditoriyaning jurnalist taqdim qilgan maqola yoki axborotlari bilan yanada chuqurroq muloqotda bo'lishini ta'minlaydi va ularni o'ziga muhim bo'lgan masalalar haqida xabardor qilish imkonini beradi.

Faktlarni tekshirish va tasdiqlash jarayonida sun'iy intellekt jurnalistlarga yordam berishi mumkin. Ya'ni, axborotlarni mavjud ma'lumotlar bazasi bilan solishtirib, potensial nomuvofiqliklarni aniqlash imkonini taqdim etadi. Bu esa yangiliklarni yanada aniq va ishonchli tarzda tarqatishga yordam beradi va noto'g'ri ma'lumotlarning tarqalishini kamaytiradi (Färber, 2018). Biroq yakuniy qarorni chiqarishda inson nazorati muhim ahamiyatga ega, bu esa sun'iy intellekt algoritmlarini inson tafakkuri bilan almashtirishning oldini oladi.

Xorij yangiliklarini tarjima qilishda ham sun'iy intellekt bazasida ishlovchi tarjima dasturlari, ilovalar yoki vositalar ishni tez va samarali amalga oshirishga yordam beradi (Carl & et.al., 2019). Masalan, O'zbekistonda SI matn generatoridan samarali qo'llanilib, faoliyat yuritayotgan tahrirchi.uz dasturining tilmoch funksiyasi Google tarjimonga nisbatan xorij matnlarini o'zbek tiliga samarali o'giradi va sayqallash funksiyasi orqali matnni tahrirlaydi.

Dastur yaratuvchilarining ta'kidlashicha: "Dasturni yaratish jarayonida o'zbek tili lug'atidagi deyarli barcha so'z va iboralar birma-bir tahlil qilib chiqildi. Tilshunoslik, muloqot va adabiyotda foydalaniladigan har bir gapning grammatikasini tashkil etuvchi (fe'l, ot va hokazolar)ga derivatsion bog'liqlik jadvallari ishlab chiqilganligi bilan ahamiyatlidir. Masalan, "odam", "odamiy", "odamiylik" so'zlari bitta guruhga kiritilib, "odam" so'zining



5-rasm. Tahrirchi.uz SI matn generatorining tilmoch va sayqallash xizmatlari

uchta derivatsion bog‘liqligi modellashtirilgan. Modellashtirish jarayonida yuzaga kelgan texnik muammolar morfologik tahlilchi ma’lumotlar strukturasi yordamida yechildi. Bunda ma’lumotlar bazasi yaratilmaydi, balki qo‘shimcha va qoidalar matematik model asosida zaruratga qarab qo‘yiladi” (Mullayeva, 2022).

Dastur bazasini yanada rivojlantirish orqali nafaqat jurnalistikada, balki matn bilan ishlovchi barcha sohalarda SI dan maqsadli va samarali foydalanishga erishish mumkin.

Kontentni moderatsiya qilish va auditoriya bilan muloqot jarayonida ham sun’iy intellekt algoritmlari yordamga kelib, o‘quvchi sharhlarini moderatsiya qilish, haqoratli gaplarni aniqlash va olib tashlash, konstruktiv munozaralarni rag‘batlantirish uchun qo‘llanilishi mumkin. Bu yangiliklar kontenti atrofida sivilizatsiyalangan va faol onlayn hamjamiyatni yaratadi (Bardoel & Deuze, 2001).

Ijtimoiy tarmoq monitoringi va tahlili: sun’iy intellekt vositalari jurnalistlarga ijtimoiy tarmoqlarda trendlarni va suhbatlarni kuzatishga, potensial hikoyalarni aniqlashga va hozirgi voqealar bo‘yicha jamoatchilik fikrini o‘rganishga yordam beradi (Zamith & Westlund, 2022).

3.4. Jurnalistikada sun’iy intellektning axloqiy masalalariga oid qadriyatlarini shakllantirish

Sun’iy intellektning jurnalistikaga integratsiyasi o‘zgaruvchan imkoniyatlarni ya’ni, yangiliklarni to‘plash, tahlil qilish va hikoya qilish jarayonlarini takomillashtiruvchi vositalarni taqdim etadi. Biroq bu imkoniyatlar bilan birga, sun’iy intellektning jurnalistikada qo‘llanilishidagi eng muhim jihat bu – axloqiy me’yorlarga amal qilishdir.

SIning jurnalistikada yuzaga keltiradigan eng katta axloqiy muammolaridan biri – uning xatoliklarga moyilligi. Shu sababli jurnalist SIdan foydalangan holda yangilik yoki xabar tarqatishda uning manbasini diqqat bilan tekshirishi va aniqlik va xatoliklardan

holi kontentni taqdim etishi talab etiladi. Misol uchun, agar bir sun'iy intellekt algoritmi ma'lum bir siyosiy partiya yoki ijtimoiy guruhga oid ma'lumotlar to'plamida o'qitilgan bo'lsa, u aynan shu g'oya atrofidagi qarashlarni kuchaytiradi va shunga asoslangan kontentni taqdim qiladi. Bu esa jurnalistikaning eng muhim axloqiy me'yorlaridan biri – xolislik masalasiga putur yetkazadi. Bu xatoliklarni kamaytirish uchun jurnalistlar quyidagi strategiyalarni amalga oshirishi zarur:

- Ma'lumotlarni tanlash va xilma-xillik: jurnalistlar sun'iy intellekt algoritmlari orqali kontent tayyorlashda ma'lumotlar xilma-xilligiga diqqat bilan yondashishi lozim. Shunda xolislik ta'minlanib, turli fikr va mulohazalar jurnalistik nuqtai nazardan tahlil qilinadi.
- Faktlarni tekshirish va tanqidiy baholash: sun'iy intellekt tomonidan yaratilgan barcha kontentni jurnalistlar tanqidiy baholay olishi kerak. Matndagi xatolik va noaniqliklarni aniqlab, sinchiklab tekshirib, shundan keyingina xulosa va mulohazalarini ifoda etishi maqsadga muvofiq. Bu ma'lumotlarni ishonchli manbalar bilan tasdiqlashni va o'zining jurnalistik nuqtai nazarini ifodalay olishni talab etadi (Суходолов и др., 2019). Ayniqsa, o'zbek segmentida ijtimoiy fanlar yo'nalishi bilan bog'liq 80 foiz ma'lumotlar noto'g'ri talqin qilinmoqda. Xususan, til, adabiyot, falsafa, o'zbek jurnalistikasi tarxi kabi fanlarga oid ma'lumotlarning berilishida ayni holat kuzatilmoqda.
- Xolislik va shaffoflik: Xolislik auditoriya bilan ishonchni rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Jurnalistlar o'z maqolasida sun'iy intellekt imkoniyatidan foydalanganligini oshkor qilishi va bunda ma'lumotlar shaffofligini ta'minlashi hamda SI vositasi orqali yaratilgan kontentda uchragan yoki uchrashi mumkin bo'lgan xatoliklar haqida ma'lumot berishi kerak (Мухаммедова и др., 2024).

4. Xulosa

Demak, sun'iy intellektning jurnalistikada qo'llanilishi va u bilan samarali hamkorlikni rivojlantirish uchun jurnalistlar quyidagi ko'nikmalarni egallashlari zarur:

1. Ma'lumotlarni tahlil qilish va vizualizatsiya: axborotlarni tahlil qilish, o'xshash algoritmlarni aniqlash va xulosalarni ta'sirchan vizualizatsiyalarga aylantirish qobiliyati, sun'iy intellekt tomonidan yaratilgan ma'lumot to'plamlari bilan ishlashda muhim ahamiyatga ega bo'ladi.
2. Tanqidiy fikrlash va muammo yuzasidan xolisona qaror chiqarish: jurnalistlar sun'iy intellekt taqdim qilgan natijalarni tanqidiy baholay olishi va ularning aniqligini tahlil qilishi, potensial xatoliklarni aniqlashi va dalillarga asoslangan holda o'z xulosalarini chiqarishi kerak.

3. Kommunikatsiya va kontent yaratish: inson omili kontent yaratishda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Jurnalistlar murakkab ma'lumotlarni samarali tarzda taqdim etishi, auditoriyaga ma'lumotdan tashqari kontekstni taqdim etishi va kontent yaratishda mantiqiy bog'liqlikni ta'minlashi kerak.

Jurnalistikaning kelajagi inson va mashinalarning hamkorlikda ishlashini ta'minlashga bog'liqdir. Sun'iy intellektning imkoniyatlaridan samarali va maqsadli foydalanish, yangidan-yangi kontent yaratish yo'llarini izlashi va oxir-oqibatda ommaviy axborotni mas'uliyatli va axloqiy tarzda taqdim etishi soha mutaxassislari oldida turgan eng muhim masalalardandir. Zero, professor Sherzodxon Qudratxo'ja aytganidek: "SI – bizga do'st, ijodiy emas, kundalik yumushlarni tezroq, samaraliroq va aniqroq bajarishda yordamchi, muhim va kuchli quroldir" (2024).

Foydalanilgan manbalar:

Abdusattarov, F. (2024). Dunyoni o'zgartirayotgan sun'iy intellekt: O'zbekistonning rejalari qanday? URL: https://kun.uz/news/2024/08/22/dunyoni-ozgartirayotgan-suniy-intellekt-ozbekistonning-rejalari-qanday

Behbudiy, M. (2022). Jadidlar. Mahmudxo'ja Behbudiy. Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi.

Vazirlar mahkamasining 112-son qarori. (1997). "Jahon adabiyoti" jurnalini tashkil etish to'g'isida. Toshkent. Retrieved from URL: https://lex.uz/ru/docs/-1190519

Jurnalistikaa sun'iy intellektni joriy etish to'g'risida onlayn-maruza. (2019). URL: https://uzjoku.uz/uz/news/jurnalistikada-suniy-intellektni-joriy-etish-togrisida-onlayn-maruza

Mullayeva, S. (2022). Inha universiteti talabasi yangi dastur yaratdi. URL: https://yuz.uz/uz/news/inha-universiteti-talabasi-yangi-dastur-yaratdi

Po'latova, G.A. (2021). Sun'iy intellekt va uning inson faoliyatida tutgan o'rni. Scientific Progress, 2(8), pp. 929-935. URL: https://cyberleninka.ru/article/n/sun-iy-intellekt-va-uning-insoniyat-faoliyatida-tutgan-o-rni

Qudratxo'ja, Sh. T. (2024). Sun'iy intellekt jurnalistikada insonning o'rnini bosa olmaydi. URL: https://uza.uz/oz/posts/suniy-intellekt-jurnalistikada-insonning-ornini-bosa-olmaydi_628115

Sharq yulduzi – adabiy-badiiy, ilmiy, ijtimoiy-siyosiy jurnal. (2023). URL: https://sharqyulduzi.uz/biz-haqimizda/

Bardoel, J., Deuze, M., (2001). Network Journalism: Converging Competences of Media Professionals and Professionalism. Australian Journalism Review 23 (2), pp.91-103. URL: https://www.researchgate.net/publication/267969191_Network_Journalism_Converging_competences_of_old_and_new_media_professionals

Brill Publisher. (2016). The Journal of World Literature. Retrieved 02 14, 2025, from URL: https://brill.com/view/journals/jwl/jwl-overview.xml#showmorecontent

Calvo Rubio, L. M. & Ufarte Ruiz, M.ª J. (2021). Artificial intelligence

and journalism: Systematic review of scientific production in Web of Science and Scopus. Communication & Society, 34(2), pp. 159-176. Doi: https://doi.org/10.15581/003.34.2.159-176

Chan-Olmsted S.M. (2019). A review of artificial intelligence adoptions in the media industry. International Journal on Media Management, (3-4)(21), 193–215. Doi: https://doi.org/ 10.1080/14241277.2019.1695619

Diakopoulos, N. (2019). Automating the news: How algorithms are rewriting the media. Cambridge, MA: Harvard University Press.

Edwards, C., & Spence, P. R. (2016). Initial interaction expectations with robots: Testing the human-to-human interaction script. Communication Studies, 67(2), pp. 227-238. Doi: https://doi.org/10.1080/10510974.2015.1121899

Färber & et.al. (2020). A Multidimensional Dataset Based on Crowdsourcing for Analyzing and Detecting News Bias. CIKM '20: Proceedings of the 29th ACM International Conference on Information & Knowledge Management, pp. 3007 – 3014. doi:https://doi.org/10.1145/3340531.3412876

Gebru, T., Morgenstern, J., Vecchiolla, C., Vaughan, J., Shelly, H., & Crawford, M. (2020). On the dangers of stochastic parrots: Can language models be too big? Proceedings of the Conference on Fairness, Accountability, and Transparency, 38-49. Doi: https://doi.org/10.1145/3442188.344592

Hessman, T. (2017). AI, automation, & being human. New Equipment Digest, 82(10), P. 39. URL: https://www.newequipment.com/industry-trends/article/22059532/on-ai-automation-and-being-human

Jones, R. (2020). The Future of Journalism. Oxford University Press. URL: https://www.cardiff.ac.uk/__data/assets/pdf_file/0004/1700383/FoJ_2019_Book_of_Abstracts.pdf

Latar, N. (2015). The Robot Journalist in the Age of Social Physics: The End of Human Journalism? The Economics of Information, Communication, and Entertainment, 65-80. doi:https://doi.org/10.1007/978-3-319-09009-2_6

Linden, C. (2017). Decades of automation in the newsroom: Why are there still so many jobs in journalism? Digital Journalism, 2(5), pp. 123–140. doi:https://doi.org/10.1080/21670811. 2016.1160791

Sajid, Ali & et al. (2023). Explainable Artificial Intelligence (XAI): What we know and what is left to attain Trustworthy Artificial Intelligence. Information Fusion, 99(101805). doi:https://doi.org/10.1016/j.inffus.2023.101805

Noain-Sánchez, A. (2022). Addressing the Impact of Artificial Intelligence on Journalism: the perception of experts, journalists and academics. Communication & Society, 35(3), 105-121. https://doi.org/10.15581/003.35.3.105-121

Sundar, S. (2020). Rise of machine agency: A framework for studying the psychology of Human – AI Interaction (HAII). Journal of Computer-Mediated Communication, 1(25), 74–88. doi:https://doi.org/10.1093/jcmc/zmz026

Umarkulov, A. (2024, Avgust 20). ChatGPT yordamida yozilgan kitobdagi maslahat tufayli bir oila qo'ziqorindan zaharlandi. Toshkent. Retrieved from https://yuz.uz/news/chatgpt-tomonidan-yozilgan-kitobdagi-maslahat-tufayli-bir-oila-qoziqorinlardan-zaharlandi

Ventura, M., Romero, J., López, I., & Tufano, M. (2017). Data

storytelling: Combining storytelling and data visualization. Journal of Information Technology & Case Studies, 8(2), 18-29.

Vieira, L.N. (2020) Machine Translation in the News: A Framing Analysis of the Written Press. Translation Spaces 9(1): 98–122. doi: https://doi.org/10.1075/ts.00023.nun Vazirlar mahkamasining 112-son qarori. (1997). "Jahon adabiyoti" jurnalini tashkil etish to'g'isida. Toshkent. Retrieved from URL: https://lex.uz/ru/docs/-1190519

Zamith, R., & Westlund, O. (2022). Digital Journalism and Epistemologies of News Production. Oxford Research Encyclopedia of Communication. Doi: https://doi.org/10.1093/acrefore/9780190228613.013.84

Гулямов, С.С., Шермухамедов, А.Т., Мухитдинова, М.Х. (2022). Развитие искусственного интеллекта в Узбекистане. Nazariy va amaliy tadqiqotlar xalqaro jurnali, 2(5), С. 7-17. URL: https://cyberleninka.ru/article/n/razvitie-iskusstvennogo-intellekta-v-uzbekistane

Мухаммедова Л. и др. (2024). Журналистика и искусственный интеллект: возможности и вызовы. Ceteris Paribus(4). URL: https://cyberleninka.ru/article/n/zhurnalistika-i-iskusstvennyy-intellekt-vozmozhnosti-i-vyzovy

Суходолов А.П. и др. (2019). Журналистика с искусственным интеллектом. Вопросы теории и практики журналистики(4). URL: https://cyberleninka.ru/article/n/zhurnalistika-s-iskusstvennym-intellektom

Mualliflar haqida:
BURANOVA Barno Menglibayevna – O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti "O'zbek tili va adabiyoti" kafedrasi dotsenti, PhD., buranovabarno17180915@gmail.ru
NAZAROVA Munira Yusupova – O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti ikkinchi bosqich tayanch doktoranti, munira_nazarova1601@mail.ru

THE APPLICATION OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE IN JOURNALISM: OPPORTUNITIES, CHALLENGES, AND ETHICAL ISSUES

Abstract: This scientific article investigates the integration of artificial intelligence into journalism, analyzing its impact on news production, distribution, and consumption. The study examines emerging problems and shortcomings in the field and presents proposals and recommendations based on scientific conclusions.

The article explores artificial intelligence's influence on journalism, particularly its role in simplifying work processes, analyzing and visualizing data, personalizing news, fact-checking and verification, language translation, and content moderation. Additionally, it analyzes ethical issues associated with the application of artificial intelligence in journalism, including concerns related to errors, fairness, transparency, and the erosion of trust.

Keywords: artificial intelligence (AI), journalism, content, ethical norms, text editing and analysis, reliability, visualization

About the authors:
BURANOVA Barno Menglibayevna – Associate Professor of the Department of "Uzbek Language and Literature" of the University of Journalism and Mass Communications of Uzbekistan, PhD., buranovabarno17180915@gmail.ru
NAZAROVA Munira Yusupova – Second-year basic doctoral student of the University of Journalism and Mass Communications of Uzbekistan, munira_nazarova1601@mail.ru

ПРИМЕНЕНИЕ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В ЖУРНАЛИСТИКЕ: ВОЗМОЖНОСТИ, ВЫЗОВЫ И ЭТИЧЕСКИЕ ВОПРОСЫ

Аннотация: В данной научной статье исследуется интеграция искусственного интеллекта в журналистику, анализируется его влияние на производство, распространение и потребление новостей. В исследовании рассматриваются возникающие в этой сфере проблемы и недостатки, а также представляются предложения и рекомендации, основанные на научных выводах. В статье рассматривается влияние искусственного интеллекта на журналистику, в частности, его роль в упрощении рабочих процессов, анализе и визуализации данных, персонализации новостей, проверке и верификации фактов, переводе и модерации контента. Кроме того, в ней анализируются этические вопросы, связанные с применением искусственного интеллекта в журналистике, включая проблемы, связанные с ошибками, справедливостью, прозрачностью и подрывом доверия

Ключевые слова: искусственный интеллект (ИИ), журналистика, контент, этические нормы, редактирование и анализ текста, достоверность, визуализация

Об авторах:
БУРАНОВА Барно Менглибаевна – доцент кафедры "Узбекский язык и литература" Университета журналистики и массовых коммуникаций Узбекистана, PhD., buranovabarno17180915@gmail.ru
НАЗАРОВА Мунира Юсуповна – докторант второго курса Университета журналистики и массовых коммуникаций Узбекистана, munira_nazarova1601@mail.ru